



MEDIATSIYA MOHIYATI

Tillaboyeva Muazzamoy

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5558845>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-oktabr 2021

Ma'qullandi: 05- oktabr 2021

Chop etildi: 10- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

"Mediatsiya", Yevropa
Parlamenti va
Kengashining, Yevropa
davlatlarida

ANNOTATSIYA

Ko'p asrlar davomida mediatsiya davlatlararo aloqalarda, oilalar, qo'shnilar, siyosiy partiyalar, professional, diniy va boshqa jamoatchilik guruhlari o'rtasida va parlamentda yuzaga keladigan nizolarni barataraf etishda muvaffaqiyatli qo'llanildi.

Bizning davrimizda mediatsiya va uning tarkibiga kiradigan usullarning ahamiyati kattadir. U nafaqat oila va mehnat nizolarida, balki, har qanday darajadagi mulkiy munosabatlarda, jumladan, kompaniyalar, korporatsiya menejmenti va uning aksiyadorlari o'rtasidagi, shuningdek, xalqaro huquq sub'yektlari orasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishda qo'llanilmoqda.

"Mediatsiya" so'zi lotin tilidagi "mediare" so'zidan olingan bo'lib, vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish degan ma'nolarini bildiradi. Shuning uchun yuridik adabiyotlarda mediatsiya va vositachilik tushunchalari sinonim hisoblanadi.

BMT ustavining 33 - moddasida mediatsiya (vositachilik) nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2008 yil 21

maydagi YEI 2008 (52) direktivasi fuqarolik va tijorat sohasidagi mediatsiyaning ayrim aspektlariga taalluqli bo'lib, mediatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Nizoning ikki yoki undan ortiq taraflari ular o'rtasidagi nizoni hal qilish to'g'risida kelishuvga erishish maqsadida, mazkur jarayon taraflarning tashabbusi bilan uyushtirilganligidan, sud tomonidan taklif etilgan yoki tayinlanganligidan yoki milliy qonunchilikda ko'rsatilganligidan qat'i nazar uchinchi tarafga yordam so'rab murojaat etishi jarayonidir".

Mediatsiya (vositachilik)ning legal ta'rifi O'zbekiston Respublikasining "Medatsiya to'g'risida"gi Qonunida belgilangan bo'lib, unga ko'ra mediatsiya – kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usulidir.



Jahon tajribasining ko'rsatishicha mediatsiya, fuqarolik – huquqiy nizolarni hal etishda juda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, anglo-sakson huquqiy tizimida yarashtiruv jarayonlari rivojlangan, shuningdek, mediatsiya Yevropa davlatlarida keng tarqalgan. Oxirgi o'n yillikda Yevropa hamjamiyati doirasida mediatsiyaga ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchilari huquqlari, erkinliklari va manfaatlari himoyasini ta'minlash imkoniyatlaridan biri sifatida murojaat etish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2002 yil Yevropa komissiyasi tomonidan fuqarolik va tijorat huquqlari bo'yicha nizolarni muqobil hal etish masalalari bo'yicha Yashil kitob ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda mediatsiya AQSH, Yangi Zelandiya, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Avstriya, Germaniya kabi davlatlarda keng rivojlangan.

Mediatsiya a) maxfiylik, b) ixtiyoriylik, v) taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, g) mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Maxfiylik prinsipi. Mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining yoki vakilining yozma roziligisiz oshkor qilishga haqli emas. Mediatsiya ishtirokchilari o'zlariga mediatsiya jarayonida ma'lum bo'lib qolgan holatlar haqida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas, shuningdek ulardan mediatsiyaga taalluqli axborotni talab qilib olish mumkin emas, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ixtiyoriylik prinsipi. Mediatsiya taraflarning mediatsiyani qo'llash

to'g'risidagi kelishuvda ifodalangan o'zaro ixtiyoriy xohish-istagi bo'lgan taqdirda qo'llaniladi. Mediatsiya taraflari mediatsiyani qo'llashdan uning istalgan bosqichida voz kechishga haqli. Taraflar o'zaro maqbul kelishuvni muhokama qilish uchun masalalarni tanlashda erkindir. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish vaqtida yarashishga majburlash taqiqlanadi.

Taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi prinsipi. Mediatsiya tartib-taomili mediativ kelishuv shartlariga bir tomonlama ta'sir ko'rsatishni istisno etgan holda amalga oshirilishi kerak. Mediatsiya tartib-taomili nizo xususida taraflarning hamkorligi asosida o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Mediatsiya taraflari mediatorni, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish tartibini, mediatsiya tartib-taomilidagi o'z nuqtai nazarini, bu nuqtai nazarni himoya qilish usullari va vositalarini tanlashda, axborot olishda, mediativ kelishuv shartlarining o'zaro maqbulligini baholashda teng huquqlardan foydalanadi hamda ularning zimmasida teng majburiyatlar bo'ladi.

Mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsipi. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediator mustaqildir. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda mediatorning faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Mediator xolis bo'lishi, mediatsiya tartib-taomilini taraflarning manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishi va mediatsiyada ularning teng ishtirokini ta'minlashi, taraflarga o'z majburiyatlarini bajarishi hamda o'zlariga berilgan huquqlarni amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi kerak. Mediatorning mustaqilligi va xolisligiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan



taqdirda, u mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishdan voz kechishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. – Toshkent: TDYuI, 2010.
2. Masadikov Sh.M. O'zbekistonda nizolarni muqobil hal etish usullarini rivojlantirish istiqbollari. H-A. Rahmonqulov va boshq. Iqtisodiyotni erkinlashtirishni huquqiy ta'minlash muammolari. – Toshkent: TDYuU, 2015.
3. Масадиков Ш.М. Проблемы правового регулирования медиации. Монография. – Ташкент: ТГЮУ, 2014.
4. Масадиков Ш.М. Медиация-альтернативный способ разрешения гражданско-правовых споров. Учебное пособие. – Ташкент: ТДЮИ, 2010. – 100 с.